



TURKIY TILLI DAVLATLAR TASHKILOTI TARIXI, INTEGRATSIYASI VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA QO'SHILISHI

Shodiqulov Eldor Sherzodovich

O'zMU Tarix yo'nalishi 1-kurs magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6603274>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14-may 2022

Chop etildi: 31-may 2022

KALIT SO'ZLAR

Turkiy Kengash, Anqara bayonoti, Toshkent deklaratsiyasi, madaniyat, Boku, Naxichivan kelishuvi, qardoshlik, tinchlik, integratsiya, energetika.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Markaziy Osiyo hududidagi (turkiyzabon respublikalar) va shuningdek, Turkiy tilli davlatlar tashkiloti tarixi, a'zo davlatlar integratsiyasi va "turkiy omil"ning paydo bo'lishiga bag'ishlangan. O'zaro hamkorliklar bosqichma-bosqich shakllanishi, turkiyzabon respublikalar rahbarlar sammitlari, hamkorlik kengashlari, qurultoylar va TDK hamkorliklari kengayishi haqida aytib o'tiladi. Shuningdek, TDK ga O'zbekiston Respublikasining kirishi va boshqa a'zo davlatlarning pozitsiyalari tilga olinadi.

Sovet ittifoqi qulagandan so'ng vujudga kelgan davlatlar hududida o'z ta'sirini kengaytirishdan manfaatdor bo'lgan ko'plab davlatlarning faolligi ortdi. Jumladan turkiy davlatlar ittifoqini yaratish, yangi vujudga kelgan davlatlarni unga jalb qilish, turkiy madaniyatlarni tiklashda Turkiya tashabbuskorlikni o'z qo'lga oldi. Uning qiziqishlari shubhasiz, asosiy qismini turkiy xalqlar tashkil qilgan davlatlar: Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Ozarbayjonga qaratilgan. 20-asr oxirida butun dunyoda kuchaygan integratsiya jarayonlari fonida Turkiya ham o'z imkoniyatidan foydalanib, yuqoridagi davlatlar hamda turkey millatlarni o'z atrofida "birlashtirish"ga qaror qildi. Turkiya Respublikasining integratsiya jarayondagi ilk qadamlari, avvalo, madaniy hamkorlikni tiklash, xalqlar va millatlar

o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yillar o'tishi bilan ushbu harakatlar siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qildi. Ular o'rtasidagi hamkorlik turkiylararo aloqalarni mustahkamlashda boshqa mamlakatlar manfaatlariga tahdid solmaslik prinsplariga asoslanadi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligini quvvatlagan, ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirish tashabbus bilan chiqqan ilk davlatlardan biri Turkiya davlati bo'ldi. Masalan, O'rta osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 16-oktyabrda tan olgan[1] va huddi shu zayilda 1992-yil 16-dekabrda bir vaqtning o'zida Qirg'iziston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasini birinchilardan bo'lib tan oldi. Bu davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar



oʻrnatilgach, 1992 – yilda uchala davlatda ham Turkiyaning elchixonasi ochilgan.

Turkiya hukumati oʻzaro hamkorlikning turli shakllari qatorida tomonlarni qiziqtirgan keng koʻlamli masalalarni muhokama qilish uchun sammitlarni – turkiy tilli davlatlar rahbarlarining qoʻshma uchrashuvlarini oʻtkazishga yetakchi(leader)lik qildi. 1992-yilda Anqarada tashkil etilgan birinchi sammit chogʻida "mamlakatlar oʻrtasidagi birodarlik va hamjihatlik ruhi" qayd etilgan Anqara bayonoti imzolandi. Bu bilan Turkiya rahbariyati tarix, til va madaniyatning mushtarakligi toʻgʻrisidagi qoidalarni ilgari surish orqali mushtarak tomonlarni izlagan, shu bilan birga respublikalar bilan oʻzaro hamkorlik masalalarida oʻzining alohida roli oshirishga uringan. Sammitda energiya resurslari va ularni tashish yoʻllari, tinchlik va xavfsizlik muammosi muhokama qilingan.

1994- yilda boʻlib oʻtgan Istanbul uchrashuvida oʻzaro hamkorlik yangi bosqichga koʻtarildi. Mamlakatlar oʻrtasidagi yaqin aloqalarni koʻrsatishga xizmat qilgan "birodarlik ruhi" oʻrniga xalqlar oʻrtasidagi "betaraf" iborasi keldi yaʼni tomonlar oʻrtasidagi suverenitetni hurmat qilishlarini va davlatlarning hududiy yaxlitligini taʼkidladilar. Shundan soʻng, 1995-yil 28-avgustda Bishkek sammiti boʻlib oʻtdi. Istanbul sammitida boʻlgani kabi bu uchrashuvda ham hamkorlikni mustahkamlash va yanada rivojlantirishga yana bir bor urgʻu berildi.[2] Xalqlar oʻrtasidagi mustaqillik tamoyillari asosida suverenitet, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik haqida soʻz bordi. Sammit davomida turkiy xalqlarning buyuk

madaniy meroslarini saqlash zarurligi haqida ham taʼkidlandi. Sammit uchrashuvi davomida Turkiya orqali Yevropa va Oʻrta yer dengiziga gaz va neft quvurlarini yotqizish loyihalari muhokamasi ham koʻrib chiqildi. Barcha prezidentlar hamkorlik qilish va munosabatlarni rivojlantirishga kelishib oldilar.

Navbatdagi sammitda imzolangan Toshkent deklaratsiyasida (1996-yil 21-oktabr) turkiy tilli davlatlar oʻrtasida turli sohalaridagi hamkorlik jadal ishlab chiqilishi tartibga solindi. Respublikalar prezidentlari savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, oʻzaro aloqalarni bartaraf etish zarurligini taʼkidladilar. Sammitning eng muhim yutuqi turkiy tilli davlatlar rahbarlari uchrashuvlari kotibiyatining tashkil etilishi boʻldi. Unga davlat boshqaruvining uchrashuvlari uchun materiallar tayyorlash, turkiy tilli respublikalar tili, madaniyati va yutuqlarini targʻib qilishga bagʻishlangan konferensiyalar, simpoziumlar oʻtkazish bilan bogʻliq vazifalar yuklangan; turkiy xalqlarning oʻtmish va hozirgi hayotiga oid tarixiy adabiyot manbalarini izlash, tanlash va nashrga tayyorlash yuklangan.

1998-yilga kelib turkiy respublikalar rahbarlarining qoʻshma sammitlarga munosabati oʻzgardi. Turkiy davlatlarning yagona makonga birlashishi muhimligini taʼkidlandi: mamlakatlar 11 million kvadrat kilometr maydonni egallagan va 220 milliondan ziyod kishini birlashtirgan va bu koʻrsatkichlar iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga asos boʻlishini taʼkidladi. Navbatdagi sammit, Ozorbayjon Respublikasining Boku shahrida 2000-yil 8-aprelda boʻlib oʻtdi, bu yerga toʻrt davlat prezidenti tashrif buyurdi: Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Turkiya rahbarlari. Turkmaniston va Oʻzbekiston



Respublikasidan ham vakillar ishtirok etdi. Yig'ilishda tabiiy resurslarni o'zlashtirish va qazib olish muhimligini to'g'risidagi masalalar ko'rib o'tildi.

Integratsiyaning yanada yuqori darajasi Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Naxichevanda 2009-yil 3-oktyabrda o'tkazilgan 9-sammitidan so'ng yuzaga keldi, unda yaqinlashuvdan eng ko'p manfaatdor bo'lgan to'rtta davlat: Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya ishtirok etdi. Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Naxichevan sammiti tarix, til va madaniyatning yaqinligi, do'stlik, tenglik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan barcha sohalarida oliy darajadagi aloqalar muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Yig'ilishning eng muhim yutuqlari Turkiy Davlatlar Hamkorligi Kengashining (Turkiy Kengash) turklararo hamkorlikning yangi institutsional tuzilmasini yaratish to'g'risidagi qaror va qarorgohi Istanbulda joylashgan yangi xalqaro hukumatlararo tashkilotning ta'sis shartnomasining imzolanishi bo'ldi.[3] Turkiy kengash tarkibiga besh organ: Davlat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Oqsoqollar kengashi, Tashqi ishlar idoralarida xizmat ko'rsatgan xodimlar kengashi va Doimiy kotibiyat kirdi. TR Prezidenti A.Gul bu voqeani tarixiy qadam sifatida baholadi, chunki ilk bor turkiy dunyoni birlashtirgan institutsional tuzilma paydo bo'ldi. Shunday qilib, institutsional tuzilmalarning paydo bo'lishi turkiy integratsiyaning yangi bosqichining boshlanishiga yordam berdi.

O'zbekiston tuzilmaga asos solingan davrda uning nafaqat faol ishtirokchisi, balki tashabbuskorlaridan biri ham bo'lgan edi. Biroq turli sabablarga ko'ra, 2000- yillar boshidan o'zining ishtirokini chekladi va

keyinchalik to'xtatib qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qo'shni va qardosh davlatlar va qator mintaqaviy tashkilotlar bilan ochiq va konstruktiv hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan oqilona tashqi siyosati Turkiy Kengash doirasidagi aloqalarning ham o'rnatilishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

2018-yil 3-sentyabrda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning Cho'lpon-ota shahrida o'tkazilgan sammitda faxriy mehmon sifatida ishtiroki bu boradagi tarixiy qadam bo'ldi. 2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Naxichevan bitimini ratifikatsiya va o'sha yili oktyabrda tuzilmaga rasmiy qo'shildi.[4]

O'zbekiston Respublikasining tashkilotga a'zo bo'lishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Turkiy Kengashga a'zolik xalqimizning tub manfaatlariga to'la javob beradi. Bugungi kunda o'rtamizda nafaqat madaniy-ma'naviy aloqalar, balki savdo-iqtisodiy munosabatlar ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Oxirgi uch yilda davlatlarimizning o'zaro savdo hajmi salkam ikki barobarga oshdi, mingdan ortiq yangi qo'shma shirkatlar ochildi. Transport qatnovlari kengaymoqda, vizasiz tartib asosida turistlar oqimi ko'paymoqda, xalqlarimizning qardoshlik rishtalari mustahkamlanmoqda" – deya o'z fikrini bildirib o'tdi.[5] Shuningdek, bir qancha takliflarni bildirib o'tdi:

Birinchidan, tashkilot doirasida savdo aloqalarini kengaytirish uchun qulay sharoitlarni yaratish lozimligi va bu borada mavjud imkoniyatlarni atroflicha o'rganish maqsadida Turkiy davlatlar savdo hamkorligi bo'yicha tadqiqot markazini tashkil qilishni taklif qildi. Ushbu markaz



savdo to'siqlarini bartaraf etish, elektron tijoratni keng joriy qilish, eksport-import hajmini ko'paytirishga qaratilgan aniq takliflar hamda qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug'ullanishi darkorligi.

Ikkinchidan, savdo – iqtisodiy hamkorligimizni yanada rivojlantirish uchun transport va transit masalalarida alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bugungi vaziyat bizdan Xitoydan Yevropagacha bo'lgan va mamlakatlarimiz hududidan o'tadigan yangi transcontinental transport yo'llarini yanada rivojlantirishni talab etmoqda. Bu borada hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish uchun "Turkiy davlatlar tashkilotining transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik dasturi"ni ishlab chiqishni taklif etildi. Ushbu dastur mintaqalararo multimodal koridorlarni rivojlantirish, chegaralardan o'tish tartibini soddalashtirish, bo'xona, sanitariya va boshqa turdagi nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, transport va tranzit tariflarini optimallashtirish masalalariga samarali yechimlar topishga qaratilishi aytiladi.

Uchinchidan, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Davlatlarimizda mavjud bo'lgan ixtisoslashgan tashkilotlar negizida "Enjenering va texnologiyalar markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiqligi. Ularning faoliyati qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish va raqobatbardoshlik tamoyillariga asoslangan qo'shma loyihalarni birgalikda ishlab chiqishga yo'naltirilish va bunday loyihalarni kelgusida tuziladigan qo'shma investitsiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirish mumkin bo'lishi va ushbu tashabbusni ro'yobga chiqarish hamda bu borada yangi

imkoniyatlar ochish uchun kelgusi yili O'zbekistonda "Turkiy davlatlar sanoat haftaligi"ni o'tkazish lozimligini ta'kidladi.

To'rtinchidan, sammitning "Raqamli asrda yashil texnologiyalar va "aqlli shaharlar" mavzusida o'tayotgani muhim ahamiyatga ega ekanligi. Davlatlarimizning har biri turli sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish tajribasiga egaligi. A'zo mamlakatlarda, birinchi navbatda Turkiyada bu sohada to'plangan tajribani inobatga olib, "aqlli shaharlar"ni barpo etish bo'yicha tajriba almashish va innovatsiyalarni transfer qilish maqsadida ekspertlar va IT mutahassislar uchun doimiy platforma yaratish muhimligi va bu borada ilk qadam sifatida 2022 yilda ekspertlar konferensiyasini o'tkazishni taklif qilindi.

Beshinchidan, hozirgi paytda dunyoda iqlim o'zgarishi va ekologiya muammolarini yechish hamda uglerod neytralligiga erishish va "yashil" o'tish tobora o'tkir zaruratga aylanayotganligi va Orol dengizining qurishi nafaqat mintaqamiz, balki uning tashqarisidagi ko'plab mamlakatlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani aytiladi. Hamda bu kabi ekologik fojealarning salbiy oqibatlarini yumshatish, ularning tarqalishini oldini olish uchun BMT bilan hamkorlikda Turkiy mamlakatlarning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tuzilmasini tuzish tashabbusini ilgari surdi.[6]

O'zbekiston rahbarining tashkilot doirasidagi sammitlarda har safar iqtisodiy, sarmoyaviy, savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya va logistika tizimlarini rivojlantirish, innovatsiyalar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohalariga oid, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sanoat kooperatsiyasini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ziyorat turizmi bo'yicha qator



tashabbuslarni faol ilgari surib kelayotgani bejiz emas. Chunki aynan ushbu ustuvor yo'nalishlarning jadal taraqqiy etishi xalqlarimiz umumiy farovonligiga va aholining turmush darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

bugungi kunga kelib Turkiy kengashga a'zo davlatlar qardoshlik va birodarlik ruhidagi hamda iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi asosida shakllantirilgan hamkorlikning yangi bosqichi sari dadil qadamlar bilan odimlashmoqda. Mamlakatlar yetakchilarining siyosiy irodasi, ochiq, konstruktiv siyosatlari va muntazamlik kasb etayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli qardosh xalqlarning ko'p asrlik do'stlik rishtalari qayta tiklanmoqda deb aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga ularning 1991-yilda mustaqillikka erishganligi sabab bo'ldi. Shundan boshlab davlatlar suveren davlat sifatida turli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, ular bilan teng huquqlilik va manfaatdorlik asosida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniga ega bo'ldi.

Ikkinchidan, til va madaniyat jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlarni yanada yaqinlashuvi, taraqqiy etishida ko'maklashishiga zamin yaratuvchi tashkilotlar vujudga kelishi nafaqat o'rta osiyo balki xalqaro integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga olib keldi.

Uchinchidan, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari diplomatik aloqalarni rivojlanishga ham xizmat qildi.

To'rtinchidan, avvalo madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish va turli meroslarni saqlab qolish yo'lida kata qadamlar qo'yildi va transport, logistika, energetika, neft va yana juda ko'plab sohalar bo'yicha hamkorlik rivojlandi.

Beshinchidan, bugungi kunga kelib Turkiy kengashga a'zo davlatlar qardoshlik va birodarlik ruhidagi hamda iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi asosida shakllantirilgan hamkorlikning yangi bosqichi sari dadil qadamlar bilan odimlashmoqda.

Mamlakatlar yetakchilarining siyosiy irodasi, ochiq, konstruktiv siyosatlari va muntazamlik kasb etayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli qardosh xalqlarning ko'p asrlik do'stlik rishtalari qayta tiklanmoqda deb aytishimiz mumkin.

Oltinchidan, davlatimizning bu tashkilotga kirishi va prezidentimizning iqtisodiy, savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya va logistika tizimlarini rivojlantirish, innovatsiyalar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohalariga oid, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ziyorat turizmi bo'yicha qator tashabbuslarni faol ilgari surishi qardosh xalqlarning farovonligi, madaniy aloqalari va aholining turmush darajasi yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'z.ME. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.//Toshkent.: 2000-2005. T-harf. 762-bet
2. Парубочая Е. Саммиты тюркских государств (1992–2001 гг.). // Science journal of Volgograd state university. Серия 4. История. Регионоведение. Международные отношения. В.:2011-год. 1998-9938. Стр.115-116



3. Парубочая Е. Интеграция Тюрского мира на современном этапе.//Тамбов: Грамота. №6. 2016-г. Стр.147-150
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. // 14.09.2019-y., 03/19/568/3746-son
5. Jiyanov S. , Tashev F. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar.// O'zbekistonning Turkiy kengashdagi faoliyati va ishtirokining strategik istiqbollari:Turkiy kengashning boshqa mintaqaviy tashkilotlardan farqli jihatlari. Toshkent.: 2022-yil 3-fevral. 11-son. 16-17 betlar.
6. Sh. Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019-yil.